

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 6 Jild 4

**2024**

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Науризбаева Нуржамал Қудайбергенова*

TURKISTONDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINIDAN KEYIN MINTAQADA YUZ BERGAN DEMOGRAFIK JARAYONLAR..... 14-22

*Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich*

DUNGANSHUNOSLIK TADQIQOTLARI TARIXSHUNOSLIGI (1990-2023) ..... 23-34

*Бобожонова Феруза Хаятовна*

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ДАВРИДА ҚҲЙИ ВА ҲРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ..... 35-40

*Halimov Tal'at*

XX ASRNING 20-30 YILLARIDAGI QULOQLASHTIRISH SIYOSATI VA UNING SALBIY OQIBATLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) ..... 41-45

*Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich, Shukurov Rustam Jo'raqulovich*

ALEKSANDR BEKOVICH-CHEKASSKIY EKSPEDITSIYASINING BA'ZI TAFSILOTLARI: EKSPEDITSIYANING BOSHLANISHI..... 46-54

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*

MA'RIFATPARVARLARNING MATONATLI AYOLI XAYRINISO MAJIDXONOVA (1905-1937) HAYOTI VA FAOLIYATIGA CHIZGILAR ..... 55-59

*Жайнаров Обиджон Ҳамид ўғли*

XX АСР 20-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА АДВОКАТУРА ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (ФАРФОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 60-64

*Toshpo'latov Mamadali Zaynidin o'g'li*

NUROTA TUMANI YOSHLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN CHORA-TADBIRLARNING TARIXIY TAHLILI (2017-2024) ..... 65-73

*Umarov Baxtishod*

SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ILM-FAN RIVOJI (TARIX VA TIBBIYOT MISOLIDA).. 74-79

*Ўўлдошев Салимжон Валиевич*

ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ ВА ХАЛҚ ҲЙИНЛАРИ ..... 80-85

*Askarov Azimjon Odiljon o'g'li*

O'RTA OSIYODAGI ANGLIYA-ROSSIYA RAQOBATINING TARIXIY KONTEKSTI VA KATTA O'YIN SIYOSATINING VUJUDGA KELISHI ..... 86-91

*Eshchanov Hurmat Matnazarovich*

O'ZBEKISTON HUDUDI BRONZA DAVRIDA TOPOGRAFIK XUSUSIYATLARNI ETNIK JARAYONLARI KARTOGRAFIYASI..... 92-95

*Azamatova Gulmira Bayirbekovna*

O'ZEKISTONDA AHOLI MIGRATSIYASI VA UNGA TA'SIR ETGAN IJTIMOIIYIQTISODIY

**Received:** 20 May 2024  
**Accepted:** 30 May 2024  
**Published:** 19 June 2024

*Article / Original Paper*

## **DEVELOPMENT OF SCIENCE IN BUKHARA DURING THE SAMANID PERIOD (IN THE EXAMPLE OF HISTORY AND MEDICINE)**

**Umarov Bakhtishod**

PhD student at Bukhara State University

[b.b.umarov2019@buxdu.uz](mailto:b.b.umarov2019@buxdu.uz)

**Abstract.** This article provides information about the comprehensive development of the city of Bukhara, one of the centres of Islamic civilization, famous with the name "Qubbat al-Islam" during the Samanid period, where religious, historical and medical sciences were developed, turning Bukhara into one of the important scientific centres of the caliphate.

**Key words:** Bukhara, Islam, science, history, medicine, Samanid period.

## **SOMONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ILM-FAN RIVOJI (TARIX VA TIBBIYOT MISOLIDA)**

**Umarov Baxtishod**

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islom tamadduni markazlaridan biri, "Qubbat ul-islom" nomi bilan mashhur Buxoroning Somoniylar hukmronligi davrida har tomonlama yuksalishi, diniy ilmlarning taraqqiy etishi, xalifalikdagi muhim ilmiy markazlaridan biriga aylanishi, tarix va tabobat sohalarining yuqori darajada rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, islom, ilm-fan, tarix, tabobat, somoniylar davri

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N09>

**Kirish.** Qadim va navqiron Buxoro O'zbekistonning moddiy va ma'naviy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan azim shahar, Sharq va G'arb dunyosida "Qubbat ul-islom" nomi bilan mashhurdir. VIII asrda mintaqaga islom dini kirib kelishi ortidan Buxoro asta-sekin eng muhim diniy markazga aylanib, keyinchalik islom olamida sharif sanaladigan shaharlar qatorida e'tirof etilgan. Somoniylar davriga kelib madaniyat va san'at, me'morchilik va hunarmandchilik rivojlanib, jahon tamadduni va islom olamidagi diniy va dunyoviy ilmlar taraqqiy etgan yirik markaz, olim va ulamolar, tolibi ilmlar yig'ilgan shahar sifatida shuhrat topgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagilardan foydalanildi:

1. O'rta asrlar arab va fors manbalari
2. Xorijlik olimlar tadqiqot natijalari
3. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.**

Buxoro islom kirib kelgunga qadar ham muqaddas shaharlar qatorida bo'lib, buddaviylar va zardushtiyning ko'plab ibodatxonalari bo'lgan. Ruhoniylar va otashparastlarning asosiy yig'iladigan joylari ham dastlab Surxon vohasida, keyinchalik Buxoroga ko'chgan. Hasanxo'ja Nisoriy ham Buxoro har bir asrda o'sha davr din ulamolari yig'iladigan joy bo'lgan deb keltiradi[2, b.27]. Din vakillarining to'planishi, bilimli kishilar va kutubxonalarning faoliyati bu davrda empirik bilimlarning shakllanib, rivojlana boshlaganligi bildiradi. Movarounnahrda ilm-fan rivoji arablar tomonidan mintaqaning fath etilishi va islom dinining keng yoyilishi bilan bog'liqdir.

Buxoroda masjidlar islom dinini yoyish shu bilan bir qatorda asosiy ta'lim maskani vazifasini bajargan. Buxoroliklarning juma namozlariga ishtirok etishi, islom asoslari va ta'limotlarini yaxshiroq o'zlashtirishi uchun Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim 713-yilda ilk masjidni bunyod ettirgan [1, b.47]. Aholini rag'batlantirish, masjidlarga jalb qilish maqsadida masjidga kelib juma namozini o'qigan musulmonga 2 dirhamdan pul ham berilgan. Sadriddin Salim Buxoriy ushbu masjidni buxorolik musulmonlar uchun ham ibodatxona, ham maktab, ham madrasa vazifasini o'tagan deb yozib qoldiradi[9, b.27]. Shaharda musulmonlarni ortib borishi, masjid va madrasalarga bo'lgan ehtiyojni ham oshirib borgan.

VIII asr oxiri –IX asr boshlarida Buxoro sharqning mashhur ilm markazlari qatoriga qo'shiladi. Abu Havs Kabir al-Buxoriy Movarounnahrda hanafiylik mazhabining yoyilishi, kalom ilmi ravnaqi yo'lida ulkan hissa qo'shgan. Uning sharofati bilan keyinchalik Buxoro "Qubbat ul-islom" nomi bilan ulug'langan[1, b.53; 11, c.36-37]. Abu Havs Kabir Buxoroda bir nechta masjid va madrasalar bunyod ettirib, islom ilmini xalqqa tarqatishga harakat qilgan. Buxorodagi dastlabki madrasalardan biri ham "Abu Havs Kabir al-Buxoriy madrasasi" deb atalgan[10, b.36]. Unda tahsil olish uchun uzoq mamlakatlardan ko'plab talabalar kelgan.

Somoniylar davrida maktab va ta'lim rivojiga alohida e'tibor qaratilgan. Hukmdorlar, mansabdor shaxslar, boylar va mashhur sarkardalar ilm-fan va madaniyatni yuksaltirishga homiylik qilishganligi, shu bilan bir qatorda o'z farzandlarini o'qitish va tarbiyalash, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallashga yo'naltirish maqsadida xonadonlariga faqihlar, olimlar va shoirlarni to'plab, bazmlar uyushtirganlar va ulardan tarbiyachi sifatida foydalanganlar.

Buxorolik tarbiyachilar orasida eng mashhuri Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad al-Badiahuniy bo'lib, u kishidan Abu Muhammad Abdulaziz ibn Muhammad an-Naxshabiy al-Hofiz tahsil olgan. As-Sam'oniyy esa Ismoil al-Badiahuniyini "Omilar shayxi" deb atagan. Abu Bakr Abdulloh ibn Muhammad al-Budayliy buxorolik mashhur fiqhshunos va hanafiylik mazhabining peshqadam shayxlaridan bo'lib, Abu Abdurahmon ibn Abu Laysdan tahsil olganlar[3, b.21-22]. Imom as-Suyutiy Abu Hafs Muhammad ibn Muso az-Zomiy an-Nahviy haqida shunday degan: "U tarbiyachilikdan Buxoro xatlar devonidagi mustahkam o'ringacha ko'tarilgan"[15, b.196]. Ko'rinib turibdiki, tarbiyachilar va o'qituvchilar faoliyati butun xalqni bilimli qilish bilan birga Buxoroning ilm markazi sifatidagi rolini oshirishdagi asosiy omillardan biri bo'lgan.

Amir Ismoil Somoniyy ham o'z farzandlariga tarbiyachi yollagan va uni juda hurmat qilgan. Somoniylar sulolasi mashhur vazirlaridan Abulfazl Marvaziy, Abu Ali Muhammad Ba'lamiylar tarbiyachilik qilgan. Somoniylar davrida ilm-fan rivojlanishiga Abu Fazl

Muhammad ibn Abdulloh Bal'amiy, Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad Jayhoniyy, Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal'ami kabi bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan bilimli zotlar o'z hissasini qo'shgan.

Madrasalar somoniylar davrida asosiy ilm tarqatuvchi maskan hisoblanib, ularning o'quv rejalariga o'sha davrning qiroat, fiqh, lug'at ilmi, hisobga o'xshash ham diniy, ham dunyoviy fanlar kiritilgan[7,69]. Qobiliyatli bitiruvchilar o'qishlarini Farjak, Kalobodiy, G'aribiya, Kulartegin kabi yirik madrasalarda davom ettirib, ilm-fanning yuqori cho'qqilarini egallagan va tijoratchi, olim, mudarris, shoir va yozuvchi bo'lib kamol topgan.

Somoniylar hukmdorlar va mashhur olimlar Buxoroda ilm va dinga xizmat qilishini ko'zlab madrasalar ta'sis etishgan. Ismoil Somoniyy ko'plab bunyodkorlik ishlari qatorida ko'plab madrasalar qurdirganligi va uning zamonida madrasalar soni islom sharqidagi madrasalar sonidan ko'p bo'lganligi islom manbalarida qayd etilgan[15, b.198]. Shuningdek, Imom Abu Bakr Muhammad ibn Fazl "Sikkat ul-hadid" ("Temirchilar ko'chasi")da madrasaga asos solgan. Unda Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Jo'zaniy talabalarga fiqhdan ta'lim bergan[3, b.31]. Madrasalarda darslar arab tilida olib borilgan bo'lib, talabalarni o'ziga xos qo'llab-quvvatlash maqsadida mudarrislar tomonidan hadyalar berib turilgan.

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Buxoro Somoniylar hukmdorlarning bosh shahri sifatida IX-X asrlarda sharqning eng taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylandi. Ilm olish uchun Buxoroga Bag'dod, Basra, Balx, Hirot, Marv, Nishopur shaharlaridan kelishgan. Tolib-u ilmlardan tashqari hatto dars ber maqsadida Bag'dod, Sanad va Andalus kabi olis hududlardan mudarrislar ham tashrif buyurgan. Andalus shayxlari tarixi asari bilan mashhur Muhammad ibn Solih al-Qurtubiy al-Andalusiyy ana shunday mudarrislardan biridir[15,198]. Shuningdek, Abu Ishoq Ibrohim ibn Ali al-Forisiyy, Abul Fazl Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulloh al-Balxiy, Abu Ahmad Muhammad ibn Muhammad ibn Hasan an-Nasafiyy, Said ibn Xalaf al-Balxiy, Abul Fazl ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziyy[1, b.15] va boshqalar buxoroliklar farzandlariga yaxshi dars berganlari, sidqidil xizmat qilganliklari katta mansablarga sazovor bo'lganlari tufayli bu shaharda katta obro' va e'tiborga orttirganlar.

Abu Mansur as-Saolibiy o'zining "Yatimat ut-Dahr" asarida mintaqada ijod qilgan 119 shoirning 25 tasi g'arbiy Eron va xalifalikning turli burchaklaridan kelganligini qayd etadi. Movarounnahrda kelgan faoliyat yuritgan shoirlardan 2 nafari abbosiylar xonadoni vakili bo'lganligi diqqatga sazovor[14, c.4-6]. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, X asrda Buxoro ta'lim-tarbiya markazi sifatida Bag'dod bilan tengma-teng raqobat qila olganligini qayd etish mumkin.

Buxoroda tarix ilmi ancha taraqqiy etgan. Xususan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Sulaymoni Buxoriyy (vafoti 924-yil) Somoniylarning markaziy shahri Buxoro tarixiga bag'ishlab asar yozgan [16, c.199]. Fiqhshunos olim Dovud ibn Muhammad ibn Muso Avdaniyy Buxoriyyning (932 yil vafoti) "Ahsan az-zamon" (Davrning eng yaxshi voqealari) nomli tarixiy asari borligi haqida ham ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan[20. b.29]. Bular tarix ilmi bo'yicha buxoroliklarning dastlabki ishlaridan hisoblanadi.

IX asr boshlarida Buxoroda yashagan asli balxlik geograf olim Abu Zayd ibn Sahl Balxiy 60 ga yaqin asar yozib qoldirgan bo'lib, "Suvar ul-aqolim" va "Kitob fi fazilati ilm il-axbor" asarlarida ayrim tarixiy jarayonlar bayoni keltirilgan.

Somoniylar vaziri Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad Jayhoniyy davlat ishlari bilan bir vaqtda "Ashkol ul-olam" asarini ham yozib qoldirgan[4, b.4]. Ahmad al-Jayhoniyyning

zamondoshi, geograf olim, Abu-Dulaf ham shu davrda yashab o'zidan "Risalat ul-avval" va "Risalat ul-uxro" kabi qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asarlarni qoldirgan[6, b.95].

Movarounnahr tarixnavisligining asoschilaridan biri Abu Bakr Narshaxiy (899-959) somoniylar davrining yirik olimlaridan biri bo'lib, Buxoroning paydo bo'lishi, unga tutash hududlar, vohaga islom dinining kirib kelishidan to Somoniylar hukmronligigacha bo'lgan tarixini haqida batafsil ma'lumot beruvchi "Buxoro tarixi"ni yozib qoldirgan. O'rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy-tadqiqot ishlarida Narshaxiy asari tilga olinadi. Asar arab tilida yozilgan va unda Buxoro bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni qamrab olgan.

Buxoroda tarix ilmi rivojining yana bir yorqin namunasi sifatida 964-yilda aholining tarixdan yaxshiroq xabardori bo'lishi maqsadida "Tarix ut-Tabariy"ning fors tiliga tarjima qilinganligini ham ko'rsatish mumkin. Asar amir Mansur ibn Nuh topshirig'iga binoan vazir Abu Ali al-Bal'amiy tomonidan tarjima qilingan[5, c.217].

Taxminan shu davrda yashab ijod qilgan tarixchi Abul Husayn ibn Ahmad Sallomiy bo'lib, u mashhur tarixchi olim Ibrohim ibn-Muhammad al-Bayhaqiyning shogirdi va feodal Abu Ali Chag'oniyning safdoshi bo'lgan. Abul Husayn ibn Ahmad Sallomiy 955-yil arab tilida "At-tarix fi axbori vuloti Xuroson" asarini yozadi va ushbu asarda X asr o'rtasidagi voqea-hodisalar boyini keltiriladi. Afsuski, ushbu asar bizgacha yetib kelmagan[16, c.199]. Keyingi davr arab va fors tarixchilari Gardiziy, Ibn al-Asir, Ibn Xallikon asarlarida ayrim ma'lumotlar Ahmad Sallomiydan keltirilganligi qayd etiladi.

Somoniylar hukmdori Mansur ibn Abdumalik davrida faoliyat olib borgan tarixchi Mutahhar ibn Tohir Maqdisiy (vafoti 966 yildan keyin) asli Qudduslik bo'lib, Balxda yashagan. Bizning fikrimizcha, Al-Maqdisiy o'zining mashhur "Kitob al-bad va-t-tarix" (Ibtido va tarix kitobi)ni somoniylar vazirlaridan Abu Mansur Yusuf ibn Is'hoq topshirig'iga binoan yozadi. Asarni yozish ishlari 966-yilda yakunlangan bo'lib, islom tarixshunosligining nodir asarlaridan biri hisoblanadi[21, c. 91-92]. Ushbu asar bizgacha faqatgina bir nusxada yetib kelgan[22, c.22-23].

Asli nishopurlik Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy ham tarixchi, ham adabiyotchi sifatida mashhur bo'lib, madaniyat markazi sifatida yuksalgan Buxoroda ma'lum vaqt ijod qilgan. As-Saolibiy "Yatimat ud-dahr", "Tatimat al-Yatima" va "Kitob al-g'urar" asarlari X-XI asr tarixi va madaniy hayotini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi[17, b.126.]. As-Saolibiy Somoniylar davrida Buxoroda kechgan madaniy hayotni yoritib berishga yordam beruvchi qimmatbaho asar yozib qoldirgan. "Yatimat ud-dahr"ni "X-XI asr shoirlarining o'ziga xos ensiklopedik to'plami" deb atasak xato qilmagan bo'lamiz.

Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor Utbiy ham vaqtida Buxoroda bo'lib, somoniylar hukmronligining so'nggi yillari haqida ma'lumot beruvchi asar yozgan yirik tarixchilardan sanaladi. Manbalarda va tarixiy adabiyotlarda Abu Nasr al-Utbiy o'z davrining yetuk shoiri, adib va tarixchisi sifatida gavdalanib, qator asarlar ta'rif etganligi qayd etiladi[19, b.7]. Utbiyning "Tarixi-Yaminiy" asari 1021 yilda yozib tugatilgan bo'lib, O'rta Osiyo va Xurosonning qariyb yarim asrlik tarixiga oid asosiy manbalardan biridir. Asarda 975–1021 yillarda ya'ni somoniylar va g'aznaviylar davrida Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan asosiy voqealar bayoni keltiriladi. Muallif o'z xizmat vazifalari doirasida (shaxsiy kotib, noib, pochta boshlig'i, diplomatik xodim) turli yozishmalardan, yozma hujjat materiallaridan foydalanish imkoniga ega bo'lgan[18, 6.72]. Manba Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh kabi shaharlarning

tarixiy rivojlanishi, X–XI asrlarda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan davlatchilik asoslarini ilmiy o‘rganishda bebaho birlamchi manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

Somoniylar hukmronligi davrida Buxoroda tabobat ilmi juda tez va yuqori darajada taraqqiy etgan. Islom olamining mashhur ikki tabibi Abu Bakr ar-Roziy va Abu Ali ibn Sinolar samarali faoliyati bilan nafaqat Buxoro, balki butun bashariyat tabobat ilmining turli sohalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shishdi. Abu Bakr ar-Roziydan “Al-Mansuriy fi-t-tib”, “at-Tibb al-mulukiy”, Ibn Sinodan “Al-qonun fi-t-tib”, “Kitob ash-shifo” asarlari bizgacha yetib kelgan. Abu Ali ibn Sino qomusiy bilim sohibi bo‘lib, falsafaga oid 80 ta, ruhshunoslikka oid 26 ta, tibbiyotga oid 23 ta asar yozib qoldirgan [13, b.21].

Buxorolik tabiblardan Abu Tohir Ibrohim ibn Ahmad as-Sa‘id at-Tabib, shoir Abu-l-Husayn Ahmad ibn Muhammad al-Mutim al-Ifriqiy, Muhammad al-Afzal at-Turkiylar ham g‘oyat mashhur bo‘lishgan [12, b.10]. Narshaxiy asarida Buxoroning birinchi tabibi sifatida Nasr ibn Sayyor buyrug‘i bilan buxorxudotni davolashga harakat qilgan “Qariha” ismini eslatib o‘tgan [8, b.63]. Tabiblarning ko‘rsatmalari, to‘g‘ri ovqatlanish va gigiyenaga alohida e‘tiborning ortishi natijasida Buxoroda kasalliklar boshqa shaharlarda nisbatan kam uchraganligi tarixiy asarlarda eslatib o‘tiladi.

X asr ikkinchi yarmida Buxoro tibbiyot ilmi bo‘yicha yirik markazlar qatoriga qo‘shildi. Bu davrda faoliyat olib borgan Abu Bakr Rabi ibn Ahmad al-Ahavaniy Buxoriy (vafoti 983-yil) o‘z davrining yirik tabiblaridan hisoblanadi. Somoniylar davrida anatomiya, farmokologiya va farmasevtika bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan “Hidoyat al-mutaalimin fi-t-tib” asari bilan mashhur bo‘lgan [23. b.427]. Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumri somoniy hukmdorlar saroyi tabiblaridan hisoblanib, o‘z davrida Buxoroda nom chiqargan tabiblardan bo‘lgan. O‘z tarkibiga 350 ta tibbiy terminlarni olgan O‘rta Osiyodagi dastlabki tibbiyot terminlari jamlangan “Kitob at-Tanvir” lug‘ati, shuningdek, “Risola dar iloji amrozi sidr” asari ham Nuh Qumriga tegishli hisoblanadi.

**Xulosa.** Sharqshunos olim Adam Mets o‘zining “Islom renessansi” asarida IX-X asrlarda musulmonlar hayotida taraqqiyot boshlanib, ilm-fanning turli sohaları yuksalganligini qayd etadi. Ana shunday yuksalish davrida ilm markazi sifatida Bag‘dod, adabiyot, fiqh sohaları bilan Nishopur, Marv shaharlari ancha taraqqiy etadi. Movarounnahrda hokimiyatning Somoniylar qo‘liga o‘tishi va markazning Buxoroga ko‘chirilishi bilan bu mintaqada ham yuksalish boshlanadi. Dastavval, Abu Havs Kabir al-Buxoriy sharaflariga shahar “Qubbat ul-islom” nomini olgan bo‘lsa, buyuk muhaddis Imom Buxoriy zamonlarida hadis ilmining oltin davri Buxorodan boshlanadi. Ismoil Somoniy va keyingi hukmdorlar davrida ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan amallar, shuningdek, bunyod etilgan madrasalar Movarounnahrda madaniyat rivojlanishining bosh omillaridan bo‘lib xizmat qildi. Bu davrda Buxoroda tarix va tibbiyot kabi fan tarmoqlari juda rivojlanib, butun islom olami tolib-u ilmlari kelib ilm oladigan muqaddas maskanga aylandi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. –Т.: Шарқ баёзи, 1993. – 122 б.
2. Ҳасанхўжа Нисорий. Музакири аҳбоб. Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжон. –Тошкент. Халқ мероси нашриёти, 1993. –343 б.

3. Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). (VIII-XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). –Тошкент: “Hilol-nashr” нашриёти, 2017. -335 б.
4. Абу Абдулло Мухаммад бинни Аҳмад ал-Жайҳоний. Ашкол-ул-олам. – Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” нашриёти, 2022. -56 б.
5. Мухторов А. Сомониён: замон ва макон. –Душанбе: “Сурушан”, 1999. – 288 с.
6. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.-264 б.
7. Халимов А. Развитие науки и школы в период Саманидов. Душанбе, «Шуджойён», 2009. – 119 с.
8. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан-Наршахи. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш.С.Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA, 2011. -600 с.
9. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. –Бухоро.: “Дурдона”, 2012. – 291 б.
10. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). –Тошкент: Akademnashr, 2020. – 400 б.
11. Казаков Б. Хазрати Имам – Абу Хафс Кабир Бухари. // Бухоро мавжлари. 2007 г. №4. - с.36-37.
12. Абдуҳалимов Б.А., Хасанов М., Раҳимов К. IX–XI асрларда Бухорода табобатнинг ривожини // Научное наследие Ибн Сины и актуальные проблемы современной медицины, VIII-Международные Авиценновские чтения. –Бухара, 2015. –С.10-11.
13. Маматова Н.М. Буюк донишманднинг маънавий мероси // Научное наследие Ибн Сины и актуальные проблемы современной медицины, VIII-Международные Авиценновские чтения. –Бухара, 2015. –С.21.
14. Кадиров А.М. Развитие науки и литературы в государстве Саманидов // Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. –2017. –№.12. –С.4-6.
15. Рахимов К. VII-XII асрларда Бухорода илф-фан ривожини // Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни мавзусидаги илмий-амалий анжуман, 2020 йил 27 апрел. – Бухоро. –Б.195-211.
16. Неъматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX-X. –Душанбе: Ирфон. 1989. - 304 с.
17. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
18. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Тошкент: Фан, 2007. -294 б.
19. Bekmurodova L. T. “Tarixi Yaminii” asarida O’rta Osiyoga oid tarixiy-geografik ma’lumotlar // SamDU. Ilmiy axborotnoma, 2020-yil, 6-son. –B.6-10.
20. Mamadaliyev N. Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida tarix fani holati: asosiy yo’nalishlar, asarlar va ularning ahamiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, № 12. –B.27-30.
21. Кузнецов В. А. ‘Илм ат-та’рих в системе исламского знания (VIII – XV вв.). Санкт-Петербург, 2015. -121 с. Url: <http://hdl.handle.net/11701/6536>
22. Ш.С.Камолиддин, З.А.Илхамов. Источники по средневековой истории средней азии. Учебно-методическое пособие. Т.:2018. -81 с.
23. Нуриён А.Р., Юсуфи С.Д. Фармацевтические познания в Саманидскую эпоху // Вестник Авиценны. –2017. Vol.19. – №.3. –С.422-430.